

The Effectiveness of Legal Mechanisms for Combating Drug Abuse

Alibekov Abbos Anvar o'g'li

Student, Faculty of Law, Karakalpak State University

Abstract

This thesis analyzes the effectiveness of criminal law mechanisms in combating drug abuse, their current legal framework, and the practice of their implementation. The study highlights the role of the criminal legislation of the Republic of Uzbekistan, as well as international legal instruments and conventions, in combating the illicit trafficking of narcotic drugs and psychotropic substances. In addition, the preventive and repressive functions of criminal liability measures, their practical effectiveness, and existing challenges are examined. The thesis also provides recommendations for addressing shortcomings encountered in law enforcement practice.

Keywords

drug abuse, legal mechanisms, psychotropic substances, criminal liability, prevention, illicit trafficking, youth, international cooperation.

GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASHISHDA HUQUQIY MEXANIZMLARNING SAMARADORLIGI

ALIBEKOV ABBOS ANVAR O'G'LI

QDU Yuridika fakulteti talabasi

alibekovabbos807@gmail.com

***Annotatsiya.** Mazkur tezisdagi giyohvandlikka qarshi kurashishda jinoyat-huquqiy mexanizmlarning samaradorligi, ularning amaldagi huquqiy asoslari hamda qo'llanilish amaliyoti tahlil qilinadi. Tadqiqotda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashishda O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligi normalari, shuningdek xalqaro huquqiy hujjatlar va konvensiyalarning o'rni yoritiladi. Shuningdek, jinoyat-huquqiy javobgarlik*

choralarining preventiv (oldini olish) va repressiv (jazolash) funksiyalari, ularning amaliy samaradorligi hamda mavjud muammolar ko'rib chiqiladi. Tezisdan huquqni qo'llash amaliyotida uchraydigan kamchiliklar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar beriladi.

Kalit so'zlar: giyohvandlik, huquqiy mexanizmlar, psixotrop moddalar, jinoyat-huquqiy javobgarlik, profilaktika, noqonuniy muomala, yoshlar, xalqaro hamkorlik.

“Эффективность правовых механизмов в борьбе с наркоманией”

Аннотация. В данной статье анализируются эффективность уголовно-правовых механизмов противодействия наркомании, их действующая правовая основа и практика применения. В исследовании раскрывается роль норм уголовного законодательства Республики Узбекистан, а также международно-правовых документов и конвенций в борьбе с незаконным оборотом наркотических средств и психотропных веществ. Кроме того, рассматриваются превентивные (предупредительные) и репрессивные (карательные) функции мер уголовно-правовой ответственности, их практическая эффективность и существующие проблемы. В тезисе приводятся предложения по устранению недостатков, встречающихся в правоприменительной практике.

Ключевые слова: наркомания, правовые механизмы, психотропные вещества, уголовно-правовая ответственность, профилактика, незаконный оборот, молодежь, международное сотрудничество.

Bugungi globallashuv jarayonida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishi nafaqat alohida davlatlar, balki butun xalqaro hamjamiyat oldida turgan jiddiy muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu illat jamiyatning ijtimoiy barqarorligiga, yoshlar tarbiyasiga, aholi salomatligiga hamda davlatning iqtisodiy va huquqiy tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli

giyohvandlikka qarshi kurashish masalasi davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi. O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish bo‘yicha bir qator huquqiy mexanizmlar shakllantirilgan bo‘lib, ular jinoyat qonunchiligi, ma‘muriy huquq normalari hamda maxsus profilaktik chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Jinoyat-huquqiy mexanizmlar esa ushbu sohada eng muhim va ta‘sirchan vositalardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur tezisda giyohvandlikka qarshi kurashishda jinoyat-huquqiy mexanizmlarning samaradorligi, ularning amaliyotda qo‘llanilishi, mavjud muammolar hamda ularni takomillashtirish yo‘llari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, giyohvandlik jinoyatlarining oldini olish va ularga qarshi kurashish samaradorligini oshirish jamiyat xavfsizligini ta‘minlashning muhim sharti hisoblanadi. Tadqiqotning maqsadi giyohvandlikka qarshi kurashishda qo‘llanilayotgan jinoyat-huquqiy mexanizmlarni o‘rganish va ularning samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Giyohvandlik va giyohvand moddalarning noqonuniy muomalasi zamonaviy jamiyat uchun eng xavfli ijtimoiy-huquqiy muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu illat nafaqat inson salomatligiga, balki jamiyat barqarorligi, huquq-tartibot va qonun ustuvorligiga jiddiy tahdid soladi. Sud amaliyoti tahlili shuni ko‘rsatadiki, giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyatlar ko‘p hollarda boshqa og‘ir jinoyatlarni keltirib chiqaradi. Umuman, bugungi kunda giyohvandlik dunyo jamoatchiligini xavotirga soladigan darajada yoyilib ketmoqda. Oxirgi 20 yilda ko‘p mamlakatlarda giyohvandlik vositalari bilan birga psixotrop va psixofaol moddalarni iste‘mol qiluvchilarning soni oshib bormoqda. Ma‘lumotlarga ko‘ra, so‘nggi besh yilda respublika hududida giyohvandlik, psixotrop va kuchli ta‘sir qiluvchi vositalar noqonuniy muomalasi uchun javobgarlikka tortilgan shaxslar orasida yoshlar 74 foizga oshgan. Narkologik hisobga olingan 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan giyohvandlik vositalari iste‘molchilari 60 foizga

ko'paygan. Ammo mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ularning giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga nisbatan qarshi immunitetni shakllantirish, shuningdek, inson salomatligini ta'minlashga qaratilgan ishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, so'nggi yillarda yangi turdagi sintetik giyohvandlik vositalari va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar paydo bo'layotganligi, ular inson omilisiz internetning ijtimoiy tarmoqlaridan foydalangan holda aholi, ayniqsa yoshlar orasida oson tarqatilayotganligi mas'ul davlat tuzilmalarining bu boradagi faoliyatini "Barcha sa'y-harakatlar inson qadri uchun" degan ustuvor g'oya asosida sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish zarurligini taqozo etmoqda¹. Yurtimizda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar noqonuniy aylanmasining barvaqt oldini olish, aholida ularni iste'mol qilishga nisbatan immunitetni shakllantirish orqali genofondimizga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar bartaraf etilmoqda. Jahon tajribasi negizida giyohvandlikka chalingan bemorlar uchun tibbiy-davolanish tizimi tashkil etilmoqda. Bunda, ayniqsa, 2024-yil 6-may kuni Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo'yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta'sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilingani ulkan ahamiyat kasb etdi. Ushbu hujjatda ayni sohadagi davlat siyosatining istiqbolli yo'nalishlari belgilab berildi. Yanada muhimi shuki, O'zbekistonning Markaziy Osiyoda giyohvand moddalar savdosi va giyohvandlikka qarshi kurash borasida olib borayotgan izchil siyosati tufayli mintaqamizda bu borada ijobiy natijalarga erishilayotgani ham ayni haqiqatdir. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatlar uchun javobgarlikka tortilgan shaxslar soni 2024-yilda 5 257 nafarni tashkil etgan

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 06.05.2024 yildagi PF-73-son <https://lex.uz/uz/docs/-6912475>

bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 8 758 nafarga yetgan. Bu holat mazkur turdagi jinoyatlarga qarshi kurash kuchayganini va aniqlash hamda javobgarlikka tortish mexanizmlari faollashganini ko'rsatadi. Bu esa jamiyatda gijohvandlikning o'ldini olishga kata e'tibor qaratganligini yaqqol ko'rsak bo'ladi. Raqamlarning bu qadar keskin o'sishi nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning tezkor-qidiruv faoliyati kuchayganidan, balki gijohvandlik moddalari tarqalishining yangi, yashirin mexanizmlari (internet tarmoqlari, Telegram-botlar va "zakladka" usuli) kirib kelganidan dalolat beradi. Ayniqsa, sudlanayotganlar sonining ortishi jinoyat-huquqiy preventiv (profilaktika) choralarning samaradorligini qayta ko'rib chiqishni hamda jazo muqarrarligi mexanizmlarini zamonaviy kiber-tahlil usullari bilan integratsiya qilishni taqozo etadi. Shu bilan birga Gijohvandlik global miqyosdagi transmilliy jinoyat bo'lgani sababli, unga qarshi kurashish nafaqat milliy darajada, balki xalqaro hamjamiyat miqyosida ham tizimli muvofiqlashtirilgan. BMT tomonidan 26-iyunning "Xalqaro gijohvandlikka qarshi kurashish kuni" deb e'tirof etilishi ham muammoning global xavfini anglatadi. Shundan kelib chiqib, milliy jinoyat-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirishda xalqaro standartlar va BMT tavsiyalarini implementatsiya qilish muhim ahamiyatga ega². Gijohvandlik fuqarolar salomatligi, jamiyatdagi tinchlik va barqarorlikka tahdid soladi. U nogironlik, jinoyatlar, oilalar parokandaligi kabi ko'plab salbiy oqibatlarga olib keladi. Shu bois bu illatga qarshi kurashish butun dunyoda global muammolardan biriga aylangan.

BMT ma'lumotiga ko'ra, dunyoda 27 milliondan ortiq odam gijohvandlik dardiga yo'liqqan. Uning aksariyat qismini 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi. Buning oqibatida har yili 200 mingdan ortiq kishi hayotdan ko'z yumayotgani taassuflidir. Keyingi paytlarda gijohvand va psixotrop moddalarning inson salomatligiga ziyoni

² BMT Bosh Assambleyasining 42/112-sonli rezolyutsiyasi 1987-yil 7-dekabr
<https://docs.un.org/en/A/RES/42/112>

haqida ko‘p gapirilayotganiga qaramay, afsuski, yoshlar orasida bu zararli moddalarga qiziqish saqlanib, ertamiz egalarining bu illat domiga bilib-bilmay tushib qolayotgani achinarli holdir³. Xo‘sh, giyohvandlikka batamom barham berish, bu illatning oldini olish uchun nima qilmoq kerak? Buning uchun, birinchi navbatda, aholi orasida sog‘lom turmush tarzini ommalashtirish, narkotik vositalarning iste‘moliga salbiy munosabatni shakllantirish kerak. Ikkinchidan, har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, organizmda unga qarshi immunitet hocil qilinishi darkor. Demak, giyohvandlikka qarshi kurashish, yoshlarni bu balodan asrash uchun targ‘ibot-tashviqot ishlari ko‘lamini yanada kengaytirish lozim. Uchinchidan, ota-onalarimiz farzandlarining ichki dunyosidan boxabar bo‘lib borishlari, shuningdek, ular olayotgan axborotni — ko‘rayotgan film va kliplarini imkon qadar nazorat qilib turishlari ayni muddao bo‘ladi. Sirasini aytganda, giyohvandlikka qaramlik aholining mehnatga qobiliyatli qismini zararlashi, ularning ijtimoiy himoyaga muhtojligi va unga ketadigan sarf-xarajatlarning kattaligi, mamlakatning demografik holatiga ta‘sir qilishi orqali, birinchidan, iqtisodiy taraqqiyotga, ikkinchidan, aholining sog‘lom, bexavotir turmush kechirishiga xavf tug‘dirishi orqali milliy taraqqiyot va barqarorlikka ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, giyohvandlik va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasi zamonaviy jamiyat xavfsizligi, inson salomatligi hamda davlat barqarorligiga jiddiy tahdid soluvchi global muammolardan biri hisoblanadi. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlikka qarshi kurashishning huquqiy asoslari izchil takomillashtirilib, mazkur sohada jinoyat-huquqiy mexanizmlarning samaradorligini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq giyohvandlik vositalarining yangi turlari, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatish usullarining kengayib borayotgani ushbu yo‘nalishdagi faoliyatni yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

³ <https://parliament.gov.uz/articles/2089>

Tadqiqot natijalari giyohvandlikka qarshi kurashishda faqat jazo choralarini qo'llash yetarli emasligini, balki profilaktika, huquqiy targ'ibot, yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish ham muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Shu bilan birga, jinoyat-huquqiy mexanizmlarning samaradorligi jazo muqarrarligi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining zamonaviy axborot texnologiyalari bilan integratsiyalashuvi hamda xalqaro hamkorlik darajasiga bevosita bog'liqdir. Mening fikrimcha giyohvandlikka oid jinoyatlarni aniqlash va oldini olishda raqamli texnologiyalar hamda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanish, internet va ijtimoiy tarmoqlarda giyohvand moddalar savdosiga qarshi kiber nazorat mexanizmlarini kuchaytirish, ta'lim muassasalarida giyohvandlikning salbiy oqibatlari bo'yicha muntazam huquqiy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish, yoshlar, ota-onalar va mahallalar bilan hamkorlikda profilaktik ishlar samaradorligini oshirishga qaratsak giyohvandlikning oldini olishning samaradorligi yanada yaxshilanadi. Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi giyohvandlikka qarshi kurashishning huquqiy mexanizmlarini yanada takomillashtirishga, ushbu turdagi jinoyatlarning oldini olishga hamda jamiyatda sog'lom va xavfsiz muhitni ta'minlashga xizmat qiladi desak ham bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 6-maydagi "O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo'yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta'sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-73-sonli Farmoni.// Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi <https://lex.uz/uz/docs/-6912475>
- 2) Ismoilov I., Qobulov X. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning qonunga xilof ravishda muomalasi bilan bog'liq jinoyatlar profilaktikasi: Monografiya. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2022. – 180 bet.

3) O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining sud amaliyoti va yillik statistik hisobotlari portali. [Elektron resurs]. URL: <http://www.sud.uz> (Murojaat qilingan sana: 23.06.2026).

4) United Nations Official Website. International Day Against Drug Abuse and Illicit Trafficking history and global campaigns. URL [//https://www.un.org/en/observances/end-drug-abuse-day](https://www.un.org/en/observances/end-drug-abuse-day) (Murojaat qilingan sana: 23.06.2026).

5) Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish bo‘yicha milliy va xalqaro hamkorlik strategiyalari to‘g‘risida hisobot. – Toshkent: Milliy markaz axborotnomasi, 2025-yil. – B. 12-18.

6) BMT Bosh Assambleyasining 42/112-sonli rezolyutsiyasi 1987-yil 7-dekabr [//https://docs.un.org/en/A/RES/42/112](https://docs.un.org/en/A/RES/42/112)